

**ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI
O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA QO‘LLASH.**

**APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN
TEACHER TRAINING.**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ.**

Egamberdiyeva Bonu Karimboy qizi

2nd year student of Urgench State Pedagogical Institute

Эгамбердиева Бону Керимбой кызы

**Студентка 2 курса Ургенчского государственного педагогического
института.**

Egamberdiyeva Bonu Karimboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar nima ekani, ularning o‘qituvchilarni tayyorlashdagi o‘rni, asosiy turlari va foydali jihatlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalar shakllanishi, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy ta’limga tayyorlashda bu texnologiyalarning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar : Pedagogik texnologiya, o‘qituvchini tayyorlash, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, zamonaviy dars.

Annotation: This article provides information about what pedagogical technologies are, their role in teacher training, their main types, and benefits. It also highlights the skills that can be developed in students through pedagogical technologies and the importance of these technologies in preparing future teachers for modern education.

Keywords: Pedagogical technology, teacher training, interactive methods, information technologies, modern lesson.

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, что такое педагогические технологии, их роль в подготовке учителей, основные виды и полезные аспекты. Также показано, какие навыки формируются у учащихся с помощью педагогических технологий и какова значимость этих технологий в подготовке будущих педагогов к современному образованию.

Ключевые слова: Педагогическая технология, подготовка учителя, интерактивные методы, информационные технологии, современный урок.

Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash bu ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, zamonaviy texnologiyalar, amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir.

Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari - o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat.[1]

Bugungi kunda ta'lim sohasida yangiliklar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, pedagogik texnologiyalarni o'qitish, jarayoniga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakdagi o'qituvchilarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda tayyorlashda pedagogik texnologiyalar katta rol o'ynaydi.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat etishning ilmiy asoslangan tizimidir. Unda o'qituvchining harakatlari, o'quvchining faolligi va ta'lim vositalarining bir-biriga uyg'unligi muhim hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar yordamida o'qituvchi darsni samarali rejalashtiradi.

Zamonaviy o'quv metodlarini tanlaydi va o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu texnologiyalar yordamida o'quvchi markaziga yo'naltirilgan, ochiq vat eng imkoniyatli ta'lim muhitini yaratish mumkin. Bu esa o'z navbatida zamonaviy, raqobatdosh o'qituvchilarni yetishtirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va usullarini bilish darajasi.
2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.
3. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishi. [3]

Ta'lim jarayonidagi pedagogik texnologiyalar - bu jarayonini samarali va sifatli amalga oshirishga yordam beradigan ilmiy asoslangan vositalar, usullar, va texnikalar tizimi hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularni mustahkamlash va ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali ta'limni samarali tashkil etishdir.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlaridan biri o'quvchilarning faol ishtirokini taminlashdir. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi va o'z navbatida, o'quvchilarni o'qitish jarayoniga yanada ko'proq jalb qilishga yordam

beradi. Interaktiv vositalar yordamida esa o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar, guruhlarda ishlaydilar va real muammolarni hal qiladilar.

Tarbiyaviy faoliyatda innovatsion pedagogik texnologiyalarni sinchkovlik bilan joriy etish muhimdir. Vatanparvarlik tarbiyasi tarixiy ekskursiyalar va milliy bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish. Axloqiy tarbiya ro'li o'yinlar orqali o'zaro hurmat, do'stlik va axloqiy fazilatlarni targ'ib qilish. Ijtimoiy tarbiya loyihalar orqali ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish natijalar va afzalliklar. Ta'lim va tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida yuqori natijalarga erishiladi.

Ta'lim – tarbiya jarayoniga tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llashning asosiy maqsadi shaxsni shakllantirish bundan tashqari tarbiyaviy texnologiyalar o'quvchilarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish o'zini hurmat qilish, vatanparvarlikni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish kabi muhim jihatlarni rivojlantiradi.

Pedagogik texnologiyalarni o'qituvchilarni tayyorlashda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash va zamonaviy metodlardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Natijada ular kelajakda o'z fanini yaxshi biladigan, zamonaviy fikrlaydigan o'qituvchilar bo'lib yetishadi. Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanib bormoqda. Bu yangiliklar, ayniqsa, o'qituvchilarni tayyorlashda o'z aksini topmoqda. Chunki bugungi o'quvchi ilg'or texnologiyalar bilan ishlashni istaydi. O'qituvchidan esa yangi metodlar, zamonaviy fikr va innovatsion yondashuvlar talab qilinadi. Shuning uchun o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogic texnologiyalardan foydalanish zarur.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalari

- O'qitish sifatini oshirish.
- O'quvchini markazga qo'ygan darslarni tashkil etish.
- O'rganishni qulay, tushunarli va faol qilish.
- Ta'lim natijalarini aniq baholash.
- Zamonaviy vosita va uslublardan foydalanishni o'rganish. [4]

Bularning natijasida o'qituvchi har bir darslarni zamon talablariga mos ravishda va o'quvchilarning salohiyatlarini to'g'ri va aniq baholash asosida olib boradi.

Mazkur texnologiyalardan to'g'ri foydalanish zamonaviy ta'lim va tarbiya talablariga mos rivojlangan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Biz anashunday milliy tarbiyani ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga yuksak vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni rivojlantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilish orqali biz ularni, qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bunday texnologiyalarning interfaol, multimediya va moslashtirilgan o'qitish usullarini o'z ichiga olgan xususiyatlari o'quvchilarga eng samarali o'quv tajribasini taqdim etadi. Bu texnologiyalar pedagogik yondashuvlarni o'zgartirish, o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim sohasida samaradorlik va sifatni oshirish har doim dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan mavzulardan biridir. Zamonaviy jamiyatda bilim olish jarayoni nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar o'ta muhim rol o'ynaydi. Aynan pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonlarini innovatsion yondashuvlar yordamida yangilash, ta'lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilarning tajribasini oshirish va o'quvchilarning motivatsiyasini ko'tarish bilan birga, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradigan integratsiyalashgan metodlar talab etiladi[3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyeva G.T., “Pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2020.
2. Azizxo‘jaeva N.N., “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”, Toshkent, 2019.
3. Sagdullayev A.S., “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”, Toshkent, 2021.
5. Z.F.Sharopova “ Ta’lim texnologiyalari ” Toshkent-2019. 14-bet.